

Лекарственные свойства: содержит дубильные вещества, используется в народной медицине как антисептик.

Применение: при кожных воспалениях и заболеваниях желудочно-кишечного тракта (ограничено).

5. *Gleditsia triacanthos* (Гледичия трёхколючковая)

Лекарственные свойства: кора и плоды применяются как отхаркивающее и антисептическое средство в традиционной медицине.

Применение: в виде настоев от кашля, при кожных инфекциях.

Лекарственные свойства декоративных бобовых растений усиливают их ценность в городской среде, особенно с точки зрения устойчивого озеленения и использования ресурсов в условиях ограниченного пространства. Их изучение и использование может стать основой для фитотерапии и оздоровительных программ в рамках городской экологии.

Декоративные растения семейства Бобовые играют важную роль в озеленении города Навои. Их использование способствует не только эстетическому преобразению городской среды, но и экологической устойчивости. Рекомендуется расширение ассортимента данных видов в городском ландшафтном дизайне с учётом их декоративной и экологической ценности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Ахмедов А.А. Флора Узбекистана. Ташкент: Фан, 2005.
2. Бобоев Х.Н. Декоративные растения Узбекистана. Самарканд: Университет, 2010.
3. Икрамов Ф.Х. Растения городского озеленения. Ташкент: Учкўприк, 2018.
4. Мирзаев М.М. Определитель растений Средней Азии. Ташкент: Фан, 1990.
5. Узбеков Ш.К. Флористика и фитоэкология. Навои: НДУ, 2021.
6. <https://interneturok.ru>
7. <https://uchi.ru>

**BUGUNGI KUNING DOLZARB MUAMMOLARI
VA ATROF-MUHITGA TA’SIRI**

Adilova Madina Umidovna

*Samarqand shahar 28-umumiy o’rta ta’lim maktabi
11-“A” sinf*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik muhitga zarar yetkazuvchi tabiiy va texnogen ofatlarning turlari, ularning inson salomatligi va atrof-muhitga ta’siri yoritilgan. Bundan, tashqari, Orol dengizining qurish sabablari va uning nafaqat tabiatga, balki inson organizmi va

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

hayvonot olamiga yetkazayotgan salbiy ta'siri hamda, bu muammolarga qarshi yechimlar haqida ham bir qancha fikr va ma'lumotlar ko'rsatilib o'tilgan. Maqolada ekologiya xavfsizligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni barqaror rivojlantirishga doir tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: radioaktiv chiqindilar, radiounuklidlar, Orol dengizi, flora va faunalar, Maylu-su daryosi

Abstract: This article discusses the types of natural and man-made disasters that damage the ecological environment, their impact on human health and the environment. In addition, the reasons for the drying up of the Aral Sea and its negative impact not only on nature, but also on the human body and the animal world, as well as some ideas and information on solutions to these problems are presented. The article also provides recommendations on ensuring ecological safety, rational use of natural resources and sustainable development of the environment.

Keywords: radioactive waste, radionuclides, Aral Sea, flora and fauna, Maylu-su River

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biri bu-ekologik muvozanatning buzilishi va atrof –muhitning ifloslanishidir. Aholi sonining ko'payishi, sanoatning jadal rivojlanishi, transport vositalari sonining ortishi kabi omillar tabiatga katta zarar yetkazmoqda. Shu sababli, ekologiyani himoya qilish nafaqat davlatning, balki har bir furaqoring burchi hisoblanadi. Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, O'rta Osiyo Allomalarining bundan nechi asr oldingi ekologiya haqidagi qarashlari ham bu fikrlarning yaqqol isbotidir. Masalan, Muhammad al-Xorazmiyning “Bilginki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi”, deb ta'kidlagan edi. Buyuk alloma suvlarni ortiqcha sarflash hozirgi kundagi Orol fojiasi kabi noxush hodisalarni keltirib chiqarishini nazarda tutgan bo'lsa, ehtimolda holi emas.

Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol qilish chiqindilaridan muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amalyotga tatbiq etish muammolari, ayni chog'da dolzarb hisoblanadi. Energetika, rangli metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlari chiqindilarni hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. O'zbekistonda har yili 100 million tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo'ladi, ularning 14% I toksik (zaharli) toifaga mansub hisoblanadi. Bundan tashqari, Respublikamiz hududida va unga yaqin hududlarda radioaktiv rudalarni qazib olish jarayonlari o'tgan yillarga qaraganda kuchaygan va natijada, 150ga yaqin radioaktiv ifloslanish maydonlari paydo bo'ldi. O'zbekistonning Andijon viloyatidan 30km uzoq masofada joylashgan Qirg'iz Respublikasining Maylu-su daryosi qirg'oqlarida bo'ylab joylashgan umumiy hajmi 2,5mln metr kub bo'lgan radioaktiv chiqindilar ko'milgan 23ta ombor va 13ta balanslangan rudalar to'plamlari mintaqaviy ekologik falokatlar yuzaga kelishida katta xavfdir. Radionuklidlar o'zidan radioaktiv nur chiqaradigan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

elementlarning izotoplari hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi kunda Mayli-su daryosi vodiysida realibitatsiya ishlari davom etmoqda.

Chiqindilarda hosil qiladigan korxonalar ustidan davlat nazoratini “Chiqindilar to’g’risida”gi (2002-yil) qonunga muvofiq, O’zbekiston Respublikasining Tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi amalga oshiradi.

Shu jumladan, Orol fojiasi yana bir global muammolardan biri bo’lib kelmoqda. 1996-1965-yillarga qaraganda Orol dengizining suv sathi 31m gacha pasayadi. Orol dengizidagi suv hajmi 1064km kub bo’lgan bo’lsa, hozirgi paytda suv hajmi bor yo’g’i 22km kubga teng. Orol bo’yida yog’ilayotgan chang-tuz zarralarining umumiy miqdori o’rtacha har gektar maydonga 52kg ni tashkil etgan holda tuproq holati yomonlashuvini asosiy sababchilaridan biri bo’lib kelayotgani hech kimga sir emas. Xususan yil sayin Orol dengiziga yaqin bo’lgan Qoraqalpog’istonda ham flora va fauna turi kamayib bormoqda, insonlar o’rtasida turli xil kasalliklar ko’payib bormoqda. Dengiz qurishining baliqchilik sanoatiga yetkazgan zarari 40mln, qayta ishlab chiqarish sohasidan kelib chiqqan zarar 99mln dollardan ortiqqa baholandi. Mutaxassislarning fikricha, Orol muamosining kelib chiqishga quyidagi omillar asosiy sabachi bo’lgan:

- ISHLAB CHIQUARISH KUHLARINI JOYLASHTIRISH STRATEGIYASINI NOTO’G’RI TANLANGANLIGI;
- TUPROQNING MURAKKAB MEXANIK TARKIBI, GIDROGEOLOGIK VA GEMORFOLOGIK SHAROITLARNING HISOBGA OLINMAGANLIGI;
- SUG’ORISH VA GIDROTEKNIK INSHOOT TIZIMLARINI LOYHALASH, QURISH VA ULARDAN FOYDALANISH SIFATINING PAST DARAJADALIGI;
- AHOLI SONINING ORTISHI VA KONSERVA ZAVODLARINING SONI KO’PAYISHI

Orol dengizi mintaqasida ekologik muammoni yaxshilash maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev 100 ming gektar maydonda qo’riqlanadigan o’rmonzorlar barpo etish vazifasini qo’ydi. Biz 150-200 ming gektar maydonga daraxt ekishni maqsad qilganmiz. Davlat rahbari qum va chang bo’ronlari masalasini shaxsan nazorat qiladi va hozirda mamlakatda bu muammoga qarshi samarali kurash olib borilmoqda. Bu muammoni hal etishda o’rmon pitomniklarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Joriy yilda 150 gektar maydonda pitomniklar yaratish, u yerda saksovul, cherkez, qandim kabi cho’l o’simliklarini yetishtirish ko’zda tutilgan, – degan u.

O’tgan 5 yil davomida Orol dengizi tubida 1 mln 730 ming gektar o’rmonzor barpo etilgan, ya’ni 17 ming km kvadrat maydon ko’kalamzorlashtirilgan. Bundan tashqari, 2004-yil 3-aprelda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 162-sonli “Orol bo’yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg’armasini tuzish haqida”gi qaror qabul qilindi. Unda Orolbo’-

yi atrof-muhitni va aholi sog’lig’ini mustahkamlash hamda ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan. Jumladan inqirozga javoban Birlashgan Millatlar

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Tashkiloti agentliklar konsorsiumi, jumladan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO, BMT Aholishunoslik jamg'armasi, BMT ko'ngillilar Orol dengizi fojiasidan zarar ko'rgan aholi turmush-tarzini ta'minlash deb nomlangan qo'shma dastur orqali birgalikda ishlashmoq-da.

Xulosa qilib aytish mumkimki, tabiatni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qiluvchi organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning burchidir.

FOYDALI ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [HTTPS://WWW.UNDP.ORG/AUTHORS/MATILDA-DIMOVSKA](https://www.undp.org/authors/matilda-dimovska)
2. OROL FOJIYASI KELIB CHIQISH SABABLARI Boymatov Said Boboqulovich1 Rejabov Muxriddin Yuldosh o'g'li2 1Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi 2Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.6595809>
3. TURKOLOGIK TADQIQOTLAR XALQARO ILMIY JURNAL 2025 №1 (6)
4. EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH D.YO.YORMATOVA, X.S.XUSHVAQTOVA
5. EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH O'E.XO'JANAZAROV, SH.YAKUBJONOVA

ILM-FAN VA TA'LIM MASALALARI

Berdiyeva Zarinaxon Husan qizi

Turon universiteti Filologiya va tillarni o'qitish

(ingliz tili) yo'nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu ishda global munosabatlar nazariyasining yoshlar taraqqiyot g'oyalari bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Ilm-fan va ta'lim masalalari global miqyosda muhim o'rin egallab, yosh avlodning rivojlanishi, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ta'sirini oshirishda katta ahamiyatga ega. Global munosabatlar nazariyasi orqali yoshlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda qanday ishtirok etayotgani o'rganiladi. Shuningdek, taraqqiyot g'oyalarining zamonaviy ta'lim tizimiga ta'siri va yoshlarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan hissasi ham ko'rib chiqiladi. Ishda yoshlarning xalqaro hamkorlik, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikdagi roli bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: global munosabatlar nazariyasi, yoshlar, taraqqiyot g'oyalari, ilm-fan, ta'lim, xalqaro hamkorlik, innovatsiya.